



**BOSHLANG`ICH SINF ONA TILI DARSLARI ORQALI
O`QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI
SHAKLLANTIRISH. (2-sinf ona tili darsligi asosida)**

**Askarova Umida A'zamovna.
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti.**

**ENHANCING LINGUISTIC COMPETENCE THROUGH MOTHER
TONGUE LESSONS IN PRIMARY CLASSES (2-grade mother tongue
textbook)**

Annatatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va ularning ko`nikma malakalarini oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvistika, boshlang`ich ta’lim, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, lingvistik kompetensiya, o‘quvchilar.

Annotation: This article explains creating linguistic competence as well as improving habits and qualifications of primary school students through mother tongue lessons.

Keys words: Linguistic, primary school, competence, knowledge, habit, qualification, linguistic competence, students.

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga hozirda alohida juda katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi tez va o‘zgaruvchan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yosh avlodni yuksak ma’naviyatlari va intellektual rivojlangan shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvori yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yildan-yilga ta’lim sifati takomillashib bormoqda va bunda eng asosiy bo‘g`in boshlang`ich sinf davri hisoblanadi. Bolalarga avvalo, tovush va harf tushunchalarining farqini tushuntirishimiz kerak. Chunki kichik yoshdagi

boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tovush murakkab tushuncha, sababi boshlang'ich sinflarda tovushga nisbatan ta'rif berilmagan. Shunga qaramay, bolalarga tovush haqida to'g`ri tasavvur va amaliy mashqlar yordamida hosil bo'lish jarayonlari birin-ketinlik bilan o'rgatiladi. Shunda boshlang'ich sinf o'quvchilari asta-sekinlik bilan boshlang`ich sinfdan boshlab boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar.

Kompetensiya so'zi (lotincha compete - erishyapman, munosibman, loyiqliqman,) bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llash ko'nikmasidir hamda zamonaviy ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv – olingen bilimlarni qo'llash qobiliyatiga e'tiborni qaratish usuli. Ta'limning maqsadlari mifik o'quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan maxsus so'zlar bilan tavsiflanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limdan maqsad o'quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan,ta'lim jarayonida egallagan bilim,ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy,kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir. Umumta'lim maktablarining boshlang`ich sinflarida ona tili fanidan o'quvchilarda lingvistik kompetensiya hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.Lingvitik kompetensiya bu nima? Lingvitik kompetensiya-maktab o'quvchisining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga,yangi til vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Ona tili ta'limi bolalarining tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish,erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrni anglash, o'z fikrlarini og`zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish,jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, butun ta'limini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili fanidagi lingvistik kompetensiya o'quvchilarining ona tilida o'z fikrini bog`lanishli bayon qila olishi hisoblanadi. Buning uchun ona tilining fonetika,leksika, grammatika bo'limlariga oid bilimlarini o'zlashtirish va nutq faoliyatining asosiy turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish malakalarini egallashi hisoblanadi. Ona tili ta'limining kompetentlik yondashuviga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari



bolaning fikrlay olishi, ifodalangan fikrni anglashi va o‘z fikrni savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishi nuqtayi nazaridan belgilanadi. Boshlang`ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ona tili ta’limi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quydagi parametr orqali aks ettiriladi. o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish.

2-sinf Ona tili darsligining 2-mavzusi: **”Unli tovushlar va harflar”**

14-mashq: **Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.**

Sh..mol, h..vo, j..vob, t..mon, t..rvuz, j..hon, b..ho, sh..ftoli, b..hor, m..shina, b..hodir.

17-mashq: **Xato yozilgan so‘zlarni namunadagidek to‘g`rilab yozing:**

Namuna: chumchiq-chumchuq

Burin, qudiq, johon, hovo, urig`, shomol, moshina, boho, bohor, jovob, bilbul, burgit.

3-mavzu: **”Undosh tovushlar va harflar”**

8-mashq. **O‘qing. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo‘yib so‘zlarni yozing.**

Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug`bek Samarqan.. shahri yaqinida o‘z davrining eng kat..a rasad..onasini qurdiradi. Bu yerda Mirzo Ulug`bek o‘z shogir..lari bilan birga yulduzlarni kuzatgan. Dunyo..a mashhur “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” ki..obi shu yerda yozi..gan.

10-mashq: **Nuqtalar o‘rniga **d** yoki **t** harflaridan mosini qo‘yib yozing.**

Payvan..., xursan..., do‘s..., to‘r..., g`ish..., mush..., farzan..., juf..., go‘sh..., balan..

7-mavzu: **”Tutuq belgisi haqida bilib olamiz”**

12-mashq. **Nuqtalar o‘rniga mos kelgan so‘zlarni qo‘ying.**

1. Komil jasur va bola.
2. Ismoil to‘rt baho ham oladi.

3. Salim bu maqolning tushunmadi.

4. A'zam faqat a'lo bahoga o'qishga Berdi.

Foydalanish uchun so'zlar:ba'zan, va'da, ma'nosini, qat'iyatl

8-mavzu. **"Bo'g'in haqida bilimlarimizni mustahkamlaymiz"**

2-mashq. So'zlarni bo'g`inlarga ajratib yozing. Har bir so'zning ma'nosini tushuntiring.

Jinoyat, janjal, huquq, jazo, yolg'on, qonun, o'g`rilik, haqorat, hujjat.

10-mavzu. **"So'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosini o'rganamiz"**

2-mashq: **"Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan ikkita bir xil undosh harflarni qo'yib, so'zlarni yozing.**

Baqu..at, ti..a, qi..at, muna..ar, taba..um, tana..us, a..iq, alba..a, cha..on.

Tushurib qoldirilgan undoshlar: chch, tt, vv, ss, qq, mm, ll, ff, vv.

14-mavzu: **"Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar"**

2-mashq: **"Nuqtalar o'rniga Kim? Nima? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni qo'yib gaplarni yozing.**

1. Ayiqni yaxshi ko'radi.

2. 1-oktyabr- va murabbiylar kuni.

3. Tuyalar ikki hafta ichmay yashashi mumkin.

4. Kuz faslidalar hosilni yig`ib oladilar.

5. Yer sayyorasining yo'ldoshi deb ataladi.

6. Ilhom kata bo'lganida bo'lishni orzu qiladi.

Foydalanish uchun so'zlar: harbiy, Oy, asal, suv, O'qituvchi, dehqon.

12-mashq:**Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarga so'roq berib,nima so'rog`iga javob bi`ladigan so'zlarni yozing.**

Elektron **kalkulyator** 1957-yilda ixtiro qilingan. Bu g`aroyib **qurilmaning og`irligi** 140 kg bo'lgan. Bahaybat bolishiga qaramay, u hozirgi jajji kalkulyatorlar bajargan



amallarni qila olmasdi. **Qo‘l** bilan ko‘tarib yurish mumkin bo‘lgan **kalkulyatorlar** esa 1970-yilda “Canon” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

18-mavzu: ”**Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar**”

4-mashq: **Kerakli so‘zni qo‘yib, gaplarni yozing.**

1. Kecha Nafisa dugonasinikiga
bordi, boradi, boryapti.
2. Hozir Maqsud darsga
bordi, boradi, boryapti.
3. Abror ertaga to‘garakka
bordi, boradi, boryapti.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich sinf o‘quvchilarda ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish davr talabidir. Boshlang`ich sinf o‘quvchilarda bilimlar poydevori davri hisoblanadi va shu sababli o‘quvchilarning aynan shu davrda keng fikrlashini, tafakkurini, nutqini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi. Biz o‘quvchilarni qanchalik ona tili qonun –qidalarini ongli o‘zlashtirishiga o‘rgatsak, ularning fikr doiralarini kengaytirsak, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, miliy urfatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalasak bu biz uchun faxrdir deb o‘ylayman. Biz pedagoglar boshlang`ich sinflarda nafaqat lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishimiz balki ularning erkin fikrlash qobiliyati va nutqidagi kamchiliklarini ham bartaraf etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Usmonov.N, Xolboyeva.G va boshqalar Boshlang`ich ta’limda kompetentlikni rivojlantirish omillari.Toshkent “Fan va texnologiya” 2016 yil.
- 2.Mengliyev B.R Til va ta’limda kompetensiyaviy yondashuv// Ma’rifat 2014-yil



3.To‘rayeva S Boshlang`ich sinf ona tili fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o‘quv dasturi, darslik, metodik qo‘llanmalar va ularning tahlili, Buxoro 2020-yil

4.S.D.Kuranov Ona tili 2-sinf umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik Toshkent 2023-yil.